

RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK SANOAT ZONALARINING HUDUDIY RIVOJLANISHI

Nurmatova Xilola A'zamovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida o'qituvchisi

Khilolanurmatova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467849>

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik sanoat zonalarining mazmuni va mohiyati o'rganilgan, ularning milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Kichik sanoat zonalarida amalga oshirilgan investitsion loyihalar va o'zlashtirilgan investitsiyalar hisobiga erishilgan natijalar va hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Investitsiya, chet el investitsiyalari, investitsiya faoliyati, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari, yalpi ichki mahsulot, kichik sanoat zonalar, infratuzilma, moliyaviy imtiyozlar, modernizatsiya, asosiy kapital, yer uchastkasi, investitsiya muhiti, hududiy rivojlanish.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot sezilarli va ijobiy ta'sir qila boshladi. Bu esa iqtisodiyotning barcha jabhalarida, jumladan kichik sanoat zonalarining hududiy rivojlanishiga ham munosib ta'sir eta boshladi. Dunyo iqtisodiyoti amaliyotining ko'rsatishicha, investitsiya, xorijiy investitsiyalar va raqamli iqtisodiyot iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Chunonchi, "chet ellik investorlarning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan amalga oshiriluvchi investitsiyalari"¹ to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini ifoda etib, ushbu investitsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, mamlakat va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahsulot sifatini oshirish va uning raqobatbardoshligini ta'minlash, jahon bozoriga chiqish, intensiv rivojlanishni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu borada kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi va faoliyati taraqqiyotini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shuni hisobga olgan holda "Kelgusida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini zarur infratuzilmalar bilan ta'minlash uchun 1,8 trillion so'm yo'naltiriladi".² Bundan tashqari hududlarda 130,5 ming km. uzunlikdagi past kuchlanishli elektr tarmoqlari va 40 mingdan ortiq transformatorni bosqichma-bosqich yangilash hamda 5,1 mingdan ortiq ta'mirtalab ko'priklarni tiklash bo'yicha Hukumat dasturlari qabul qilinishi, bu ishlar uchun 401 mlrd. so'm mablag' ajratilayotganligi hududlar sanoat salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.³ Darhaqiqat, bo'sh turgan yoki foydalanilmayotgan bino va inshootlar negizida barpo etilayotgan kichik sanoat zonalarini davlat

va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklikning nodir namunasi sifatida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari barpo etish, eksport salohiyatini oshirishda qo'l keladi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish uchun kichik sanoat zonalariga ichki investitsiyalar bilan birga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini faol jalb qilish, ushbu zonalarda (hududlarda) chet ellik investorlar uchun qulay ishchanlik muhitini yaratish, chet el investitsiyalarining o'zlashtirilishiga alohida e'tibor berish va bu boradagi mas'uliyatni oshirish talab etiladi. Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, joriy yil va yaqin istiqbolda milliy iqtisodiyot taraqqiyotining ta'minlanishi, aynan, investitsiyalar va kichik sanoat zonalariga daxldor masalalarning yechimiga ham bog'liqdir. Bunday sharoitda kichik sanoat zonalarini yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni ijobiy hal qilish alohida ahamiyat kasb etishi tabiiy.

Shu munosabat bilan, avvalo, kichik sanoat zonalarining mazmun-mohiyatini oydinlashtirish, undan keyin ushbu hududlarga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilishning hozirgi ahvoriga baho berish, so'ng kichik sanoat zonalariga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilishdagi muammolarni aniqlash va nihoyat ularning yechimiga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Kichik sanoat zonalarining mazmun-mohiyati iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etilayotganligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Xususan, "kichik sanoat zonalar - bu tadbirkorlik sub'ektlarini joylashtirishga mo'ljallangan, muhandislik-kommunikatsiya va infratuzilma ob'ektlarini, ma'lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o'z ichiga oluvchi hudud"⁴, "kichik sanoat

¹ Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabr O'RQ-598-son Qonuni.

² -modda, 15- xatboshi. Lex.uz/docs/4664142

³ <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

³ http://surxontongi.uz/kichik_sanoat_zonalar_iishtirokchilari_qanday_intijozga_ega_bo_ladi/.

⁴ Salimbov B.B. O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. - 2018. - №1.

zonalari kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llaridan biri"⁵, "kichik sanoat zonalari ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratuvchi, ya'ni sanoat ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb qilish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, bo'sh maydonlardan real iqtisodiy sektorni rivojlantirish orqali ulardan samarali foydalanish, aholi uchun ish joylarini yaratish hamda yangi raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan hudud"⁶, "kichik sanoat zonasi - muayyan yer uchastkasini o'z ichiga oluvchi hudud, alohida hollarda esa - muhandislik-texnika kommunikatsiyalari bilan ta'minlangan ishlab chiqarish maydonlari"⁷.

Kichik sanoat zonalariga o'ziga xos ta'rif qonunchilikda ham mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi "Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 134-sonli Qarorida ularga quyidagicha ta'rif berilgan: "kichik sanoat zonasi - ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlariaro hududning qonun hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaga ega bo'lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi"⁸. Demak, kichik sanoat zonalari, birinchidan, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ikkinchidan, investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratilgan ma'lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o'z ichiga oluvchi hudud, uchinchidan, mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan innovatsion usulda foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish maqsadida ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi hisoblanadi. Ushbu xususiyatlarning barchasi bir vaqtning o'zida namoyon bo'lgan taqdirdagina ular kichik sanoat zonalarining mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qilishi aniq. Mantiqan qaraganda, kichik sanoat zonasi kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida hududlarda sanoat ishlab chiqarishga mo'ljallangan maxsus zonani anglatadi va bunday zonalar faqat muhandislik-texnik kommunikatsiyalari mavjud bo'lgan yoki o'tkazish oson bo'lgan faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalari negizida tashkil etiladi.

Kichik sanoat zonalari faoliyati Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida tashkil etiladigan direksiyalar tomonidan boshqariladi. Direksiya kichik sanoat zonasi hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqish va investorlarni topish, tashkiliy-boshqaruv faoliyatini amalga oshirish, ishlab chiqarish maydonlari yoki yer uchastkalarini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomalarini tuzish, kichik sanoat zonasi ishtirokchilari tomonidan o'zlari qabul qilgan majburiyatlarni bajarishi bo'yicha monitoring olib borish, kichik sanoat zonasi ishtirokchilariga zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlariga ulanishida yordam berish, ularga ishlab chiqarish, moliya, marketing, huquqiy, tashqi iqtisodiy va boshqa masalalarni hal etishda ko'maklashish kabi vazifalarni bajaradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududlarida tashkil etilgan kichik sanoat zonalarida plastik quvurlar va fittinglar, maishiy kimyo mahsulotlari, trikotaj matolari va kiyim kechaklar, mineral o'g'it va poligrafik bo'yoqlar, rezina granula mahsulotlari, tibbiyot dori vositalari, parrandachilik va chorvachilikda ishlatiladigan ozuqa qo'shimchalari, qurilish mahsulotlari, xom-ashyolarni va oziq-ovqatlarni ishlab chiqarish uskunalari, 3D panellar, lokal issiqlik qozonxonalari, televizor monitorlari, kantselyariya mollari, svetodiod lampalar, meva-sabzavotlarni quritish, kimyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi texnikalari uchun ehtiyot qismlar, har-xil turdagi ko'rgazmali muzlatgichlar, transformator podstantsiyalari, kondensator qurilma kabilar ishlab chiqarilmoqda.

2020 yil 1 dekabr holatiga kichik sanoat zonalariga investitsiyalar jalb qilish natijasida amalga oshirilgan loyihalar qiymatini Toshkent shahri bo'yicha tumanlari kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik sanoat zonalarida amalga oshirilgan loyihalarning umumiy hajmi 870.224,5 mln so'mni tashkil qilgan. Toshkent shahriga qarashli tumanlarda tashkil etilgan kichik sanoat zonalarida amalga oshirilgan investitsion loyihalarning ulushi Bektemir tumanida 3 %, Mirzo Ulug'bek tumanida 29,3 %, Sergeli tumanida 4,8 %, Uchtepa tumanida 7,0 %, Chilonzor tumanida 14,2 %, Yunusobod tumanida 5,3 %, Yakkasaroy tumanida 18,7 % va Olmazor tumanida 17,8 % ni tashkil qilgan⁹.

Bunday holat mazkur hududlarda tuman mas'ullari tomonidan investorlar uchun qulay

⁵ Кузнецов В.П., Кузнецова С.Н., Лапаев Д.Н. Теоретические аспекты развития организационно-экономического механизма формирования промышленных парков. – Казань, изд-во Познание Института экономики, управления и права. 2014.

⁶ Baeva Sh.X. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirish: monografiya. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2015.

⁷ <https://www.norma.uz/qonunchilikda-yangi/kichik-sanoat-zonalari-ishtirokchilari-uchun-imtiyoz-va-preferentsiyalar-bekor-qilinmoqda>.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi «Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 134-sonli Qarori asosida tasdiqlangan «Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi Nizom». 2-band, 1-xatboshi. Lex.uz/docs/4758585

⁹ Stat.uz

investitsion va ishbilarmonlik muhiti yaratilayotganligidan dalolat beradi va milliy iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Ammo, Toshkent shahriga qarashli Mirobod, Shayxontohur, Yashnobod tumanlarida bironta ham kichik sanoat zonalarini tashkil etilmagan. Bu esa aholini ish bilan ta'minlash va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nuqtai nazaridan salbiy holatni namoyon etadi va tegishli tuman rahbarlari tomonidan hududda qulay investitsion muhit yaratish, bu boradagi mas'uliyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Masalaning yana bir muhim jihatiga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunonchi, Toshkent shahri bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalarida amalga oshirilgan jami loyihalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida chet el investitsiyalarining ulushi bor-yo'g'i 0,8 % ni tashkil qilgan va bu iqtisodiyotning drayveri hisoblangan chet el investitsiyalarini kichik sanoat zonalariga jalb qilish ishlari talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolatdir.

Kichik sanoat zonalarini mamlakatda ijtimoiy muammo hisoblangan aholini ish bilan ta'minlashda muhim o'rin egallamoqda. Jumladan, Toshkent shahri tumanlarida tashkil etilgan kichik sanoat zonalarida amalga oshirilgan loyihalar natijasida jami 11997 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Kichik sanoat zonalarida amalga oshirilgan loyihalar va yaratilgan ish o'rinlari soni bo'yicha Yakkasaroy tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda 271 ta loyiha amalga oshirilishi hisobiga 6.636 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Agar 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida respublikamizda ishga muhtoj bo'lganlarning umumiy soni 1 mln 643 ming kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 11,3 % ni tashkil etganligini¹⁰ (16-30 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida ishsizlik darajasi 17,4 %, ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi esa 14,9 % bo'ldi) hisobga oladigan bo'lsak, kichik sanoat zonalarining bugungi kunda o'tkir ijtimoiy muammo hisoblangan ishsizlarni ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi yanada oydinlashadi. Shuning uchun hududlarda kichik sanoat zonalarini samarali tashkil qilish, ularga investitsiyalarni faol jalb qilish orqali intensiv ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida, mazkur vazifalarning uddalanishi, kichik sanoat zonalarini hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq ayrim muammolarning bartaraf etilishiga ham bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi tahliliga bag'ishlangan yig'ilishida qayd etilishicha,¹¹ hududga mas'ul hisoblangan vazirlik va idoralar tomonidan investitsion loyihalarni ko'rib

chiqish va muvofiqlashtirish jarayoni murakkabligicha qolib, odatda, rasmiy xarakterga ega; investorlarga kichik sanoat zonalarini qatnashchilariga yer uchastkalari ajratish masalalarini hal etishda hanuz byurokratizm asoratlari mavjud; kichik sanoat zonalarini elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari bilan barqaror ta'minlashda hamda kichik sanoat zonalarini hududlariga olib boruvchi yo'llarning holatida ham muammolar kuzatilmoqda. Yana bir muhim masala - kichik sanoat zonalarini ishtirokchilari uchun imtiyoz va preferensiyalarni ularni amaldagi ishtirokchilar uchun 2020 yil 1 yanvargacha saqlab qolgan holda bekor qilinishi natijasida tadbirkorlik sub'ektlarining kichik sanoat zonasiga qiziqishlari va manfaatdorligi kamaygan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib: - kichik sanoat zonasi ishtirokchisi maqomini olgan, investitsiya loyihasini amalga oshirayotgan tadbirkorlar uchun elektr energiya hamda tabiiy gaz uchun to'lovlarini yuz foiz oldindan to'lash o'rniga qisman bo'lib to'lashga ruxsat berish va iste'mol qilingan oy uchun to'lovlar kechikkan hollarda o'n kun muddatgacha jarima qo'llamaslik maqsadga muvofiqdir; - tuman, shahar hokimlari, mutasaddilarining kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan investorlar uchun qo'shimcha qulaylik va imkoniyat yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash va shu orqali hudud sanoat salohiyatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratish, bu borada ularning mas'uliyatlarini yanada kuchaytirish zarur; - kichik sanoat zonasida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarni moliyalashtirishda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining ulushini oshirish va buning uchun qo'shimcha rag'batlantirish omillarini joriy qilish; - mamlakat hududlari bo'yicha bo'sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan ishlab chiqarish maydonlarini aniqlash va ular negizida tashkil etilgan kichik sanoat zonalarida istiqbolli investitsion loyihalarni amalga oshirish evaziga yangi ish o'rinlarini yaratish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz mintaqalarining iqtisodiy va investitsion, shu jumladan, ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan keng ko'lamda va unumli foydalanishni ta'minlash, transport, muhandislik kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga ilg'or texnologiyalarning tatbiq etilishini jadallashtirish, aholi bandligini ta'minlash, ularning daromadlarini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mineral-xom ashyo resurslarini qayta ishlash, yangi zamonaviy quvvatlarni barpo etishda kichik sanoat zonalarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, kichik sanoat zonasi

¹⁰ <https://www.gazeta.uz/uz/2020/11/14/ishsizlik/>.

¹¹ <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/erkin-iqtisodiy-zonalar-va-kichik-sanoat-zonalarini-rivojlantirish-masalalari-muhokama-qilindi>. Html

yangi imkoniyatlar maydoni va raqamli iqtisodiyotni rivojlanishiga munosib hissa qo'shishiga aminmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabr O'RQ-598-son Qonuni. 3-modda, 15- xatboshi. Lex.uz/docs/4664142
2. Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvar PF-5621-sonli Farmoni, 8-bandi, 1-xatboshi. Lex.uz/docs/4154478
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi «Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 134- sonli Qarori asosida tasdiqlangan «Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi Nizom». 2-band, 1-xatboshi. Lex.uz/docs/4758585
4. Baeva Sh.X. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirish: monografiya. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2015.
5. Кузнецов В.П., Кузнецова С.Н., Лапаев Д.Н. Теоретические аспекты развития организационно-экономического механизма формирования промышленных парков. – Казань, изд-во Познание Института экономики, управления и права. 2014.
6. Salimov B.B. O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. - 2018. - №1.
7. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
8. [http://surxontongi.uz/kichik sanoat zonalarini ishtirokchilari qanday imtijozga ega bo'ladi/](http://surxontongi.uz/kichik_sanoat_zonalarini_ishtirokchilari_qanday_imtijozga_ega_bo_ladi/).
9. [https://www.norma.uz/qonunchilikda yangi/kichik sanoat zonalarini ishtirokchilari uchun imtiyoz va preferentsiyalar bekor qilinmoqda](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/kichik_sanoat_zonalarini_ishtirokchilari_uchun_imtiyoz_va_preferentsiyalar_bekor_qilinmoqda).
10. O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini yagona portali ma'lumotlari asosida shakllantirilgan (<<https://sez.gov.uz/ru>>).
11. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/11/14/ishsizlik/>.
12. [https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi](https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/erkin_iqtisodiy_zonalar_va_kichik_sanoat_zonalarini_rivojlantirish_masalalari_muhokama_qilindi). Html
13. Stat.uz